

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

URAZALIYEVA MADINA G‘OFUROVNA

**MAYA ENJELOUNING “ANGLADIM QAFASDAGI QUSH NOLASIN”
ROMANI ADABIY TANQIDCHILIK
VA RETSEPTIV POETIKA ASPEKTIDA**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya
xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Urazaliyeva Madina G'ofurovna

Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romani adabiy tanqidchilik va retseptiv poetika aspektida..... 3

Уразалиева Мадина Гофуровна

Роман Майи Энджелу «Поэтому птица в неволе поёт» в аспекте литературной критики и рецептивной поэтики.....29

Urazaliyeva Madina Gofurovna

“Maya Anjelou's “I Know Why the Caged Bird Sings” in the Aspect of Reader Response Theory and Literary Criticism” 57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

URAZALIYEVA MADINA G‘OFUROVNA

**MAYA ENJELOUNING “ANGLADIM QAFASDAGI QUSH NOLASIN”
ROMANI ADABIY TANQIDCHILIK VA
RETSEPTIV POETIKA ASPEKTIDA**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya
xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Fil4601 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Maxmudova Nargiza Alimovna**
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar: **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Nasriddinov Dilshod A‘zamkulovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; email: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B.Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., professor

J.A.Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida XX asrning ikkinchi yarmida retseptiv poetika nazariyasi yuzaga keldi. Boshqa adabiy-tanqidiy nazariyalardan farqli o'laroq, kitobxon adabiy asarni mutoalaa qilish mobaynida o'zining shaxsiy kechinmalari va hayotiy tajribalarini adabiy asarni tahlil qilish jarayoniga olib kiradi. Natijada, ushbu omillar asar mohiyatini yaratishda muhim mezon sifatida ishtirok etadi. Retseptiv poetika nazariyasi namoyandalarining izlanish hamda fikrlariga ko'ra, turli kitobxonlar bir badiiy asarni turlicha interpretatsiya qiladilar, deb ta'kidlaganlar va aynan tahlil jarayonining bunday bo'lishiga yuqorida aytib o'tilganidek, kitobxonning hayotiy tajribalari, hissiyotlari va shaxsiy dunyoqarashi asosiy omil sifatida olinadi. Shu bois, tadqiqot ishining dolzarbligi zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy masalalari sifatida retseptiv poetika nazariyasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uning adabiyotshunoslikdagi ilmiy xususiyatlarini o'rganish va Maya Enjelouning "Angladim qafasdagi qush nolasin" romanini adabiy tanqidchilik hamda retseptiv poetika aspektida chuqur tahlil qilish zarurati bilan bog'liq.

Adabiyotshunoslikda retseptiv poetika nazariyasi tarafdorlari adabiy asar qanchalik muhim bo'lsa, kitobxonning badiiy asarga nisbatan tahlili ham xuddi shunday ahamiyatli ekanligini uqtiradilar. Zero, adabiy asar kitobxon interpretatsiyasiz mavjud bo'lishi mumkin emasligiga ishoniladi. Ushbu nazariyaga asosan, kitobxonlar asarni turli tuman interpretatsiya qilish orqali unga yangidan mavjud bo'lish imkonini beradi hamda asarni yanada chuqurroq anglash, turli rakurslardan tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Deyarli, o'tgan asr davomida yaratilgan adabiy asarlarning retsepsiyasini tahlil etishda kitobxonning o'rni, kitobxon tomonidan asarning interpretatsiya qilinishiga ta'sir etuvchi omillar va asar muallifi niyatining o'rni undan qay tarzda farqlanishi haqidagi ko'plab bahs-munozaralarning yechim topmaganligi, shu jumladan, retseptiv poetika nazariyasining tadqiqot metodologiyasi yetarli darajada amaliy jihatdan yaratilmaganligi, nafaqat afro-amerika adabiyotida, balki jahon adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan yozuvchi Maya Enjelouning "Angladim qafasdagi qush nolasin" romani retseptiv poetika nazariyasi asosida tadqiq etilishi ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

O'zbek adabiyotshunosligida retsepsiya muammosi, shuningdek, kitobxon va badiiy asar o'rtasidagi munosabat to'g'risida turlicha fikr-mulohazalar mavjud bo'lib, ularda badiiy asar mazmunining yaralishida o'qirmanning ham o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlanadi. Yozuvchi, badiiy asar va kitobxon o'rtasidagi tabiiy zanjir keyinchalik adabiy tanqidchilar, tarjimonlar va adabiyotshunos olimlar kabi vositachilar ishtirokida kengaygan bo'lsa-da, aslida ular ham badiiy matnni kitobxon sifatida idrok va talqin qiluvchi subyektlar ekanini unutmaslik lozim. Ularni adabiy bilimlarga ega bo'lgan, o'zining hayotiy tajribasidan kelib chiqib idrok etuvchi kitobxon ekanliklarini inobatga olgan holda, ularning badiiy asar interpretatsiyasidagi farqli jihatlarini ham ko'rish mumkin. Shu jihatdan, nafaqat

o'zbek adabiyotshunosligida, balki jahon adabiyotshunosligida ham badiiy asarning retsepsiya muammosini o'rganish dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5117-son, 2021-yil 1-apreldagi "Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5047-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonlari, 2023-yil 20-apreldagi "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-son qarorlari, shuningdek, mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi¹.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida kitobxon va mutolaa jarayonini tahlil etuvchi retseptiv poetika nazariyasining tadrijiy taraqqiyoti bo'yicha V.Iser, D.Bleyx, S.Fish, N.Holland, C.Lyuvis ilmiy izlanishlar olib borganlar. L.Rozenblat, I.Richards kabi olimlar esa nazariyaning amaliy tatbiqi ustida ishlab, kitobxon turlarini tasnifiga hamda mutolaa jarayoniga doir yangi yondashuvlarni taklif etganlar².

Rus adabiyotshunos olimlari V.Prozorov, I.Tamarchenko, V.Markovich, V.Tyupa, S.Averinsev, A.Ledenyova va boshqalar esa kitobxonni badiiy asarni mutolaa qilish jarayonining faol ishtirokchisi hamda matn mazmunni talqin qiluvchi ijodiy subyekt sifatida baholaganlar.³

¹ <https://lex.uz/docs/-4571490>; <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>; <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>; <https://lex.uz/en/docs/-5426736?ONDATE=06.02.2024>; <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>; <https://lex.uz/docs/-5352230>; <https://lex.uz/docs/-6438903> [Murojaat sanasi 26.01.2025].

² Iser W. The Reading Process: A Phenomenological Approach // Modern Criticism and Theory: A Reader. Ed. David Lodge and Nigel Wood. – New York: Longman, 2111. – P. 688-215; Rosenblatt L. Literature as Exploration. Literature as Exploration. – New York: Appleton-Century, 1938; Richards I.A. Principles of Literary Criticism. – Oxon: Routledge, 1974; Tyson L. Critical theory today: a user-friendly guide, 2nd edn. – Routledge, New York and London, 2006; Fish S. (1967). Surprised by Sin. – Harvard University Press, 1998. – 361 p.; Stadel George (1969). "The Dynamics of Literary Criticism (review)" // Kenyon Review, 1969. – № 31 (4). – P. 573-576; Schakel, Peter J. Imagination and the Arts in C.S.Lewis: Journeying to Narnia and Other Worlds. – Columbia: University of Missouri Press, 2002. – P. 21.

³ Большакова А. Теории читателя и литературно-теоретическая мысль XX века // Теоретико-литературные итоги XX века. Читатель: проблемы восприятия. – М.: Наука; Праксис, 2005. – С. 540; Бройтман С.Н., Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И.

O‘zbek adabiyotshunosligida “muallif, asar, kitobxon” mohiyatini D.Quronov, H.Umurov, E.Xudoyberdiyevlar, A.Rasulov, A.Erkayev, A.Qosimov kabi yozuvchi va munaqqidlar o‘zlarining adabiyotshunoslikka oid ilmiy izlanishlarida asarning g‘oyasini hamda muallif niyatini anglashda kitobxon rolini yuqori baholaydilar⁴.

Retseptiv poetika nazariyasi yuzasidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, muayyan asarda retseptiv poetika nazariyasi asoslarini hamda tahlil metodlarini qo‘llash, shuningdek, Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romanini shu yo‘sinda tahlil etish yaxlit monografik holatda tadqiq etilmagan. Ushbu nazariyaning adabiyot sahnasiga kirib kelishiga yarim asrdan ko‘proq vaqt bo‘lsada, taassufki, o‘zbek adabiyotshunosligiga oid lug‘at va kitoblarda bu nazariyaning ko‘lami, janr va rivoya xususiyatlari keng e‘tirof etilmagan. Shu sababli o‘zbek adabiyotshunosligi doirasida “retseptiv poetika” nazariyasini izchil o‘rganish, afro-amerikalik yozuvchi Maya Enjelou asarlarining janriy, badiiy va estetik xususiyatlarini belgilash yangi tadqiqotlarga yo‘l ochadi. Dissertatsiyada qo‘llanilgan “retsepsiya”, “retseptiv poetika”, “o‘z-o‘ziga iqror bo‘lish”, “hayotiy kitobxon”, “ko‘zlangan kitobxon”, “kutish gorizontlari” (Horizons of Expectation), “inkor etish” (Negation), “assimilyatsiya” (Assimilation), “yaratish” (Creation), “ko‘zlangan va chin kitobxon dixotomiyasi” (the Implied/Actual Reader dichotomy), “konkretlashtirish” (Concretization) va “tafovutlar”(Gaps) kabi yangi terminlar Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” asari misolida o‘zbek tilidagi adabiy lug‘atlarga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romani shaxsiy va jamoaviy o‘zlik izlanishlari, irqiy tazyiq va ijtimoiy adolatsizlik kabi murakkab mavzularni chuqur poetik talqin etgani bilan retseptiv poetika nazariyasi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Asardagi avtobiografik elementlar, ichki monolog va retrospektiv usullar kitobxonning individual tajribasi hamda emotsional qabuliga faol ta’sir ko‘rsatib, matnning ko‘pqatlamli qabul qilish imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi. Shu bois, ushbu romanni retseptiv poetika nazariyasi asosida tahlil qilish kitobxon-matn interaktivligini, shaxsiy va madaniy xotira omillarining talqin jarayonidagi rolini ilmiy asosda ochib berish imkonini yaratadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Xorijiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Теория литературы. Учеб. пособие. В 2 т. – М.: Академия, 2004. Т. 1. – С. 174; Маркович В.М. Пушкин, Чехов и судьба “лелющей душу гуманности” // Чеховиана. Чехов и Пушкин. – М.: Наука, 1998. – С. 10-19; Гюпа В.И. Коммуникативная стратегия чеховской поэтики // Чеховские чтения в Оттаве. – Тверь; Оттава, 2006. – С. 17-32; Аверинцев С.С. Судьба и весть Осипа Манделштама // Аверинцев С.С. Поэты. – М.: Языки русской культуры, 1996.

⁴ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 207 // www.ziyouz.com kutubxonasi; Umurov X. badiiy ijod asoslari. – Toshkent: Ўзбекистон, 2001. 700129 Навоий 30. Нашр № 9-2001. – B. 102; Худойбердиев Э. Адабиётшunoslikka kirish. – Toshkent: Шарк, 2008. – 368 б. // www.ziyouz.com kutubxonasi; Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Шарк, 2007. – 336 б.; Эркаев А. Эстетик онг ва бadiiy билиш // Жаҳон адабиёти. – Т., 2015. 11-сон. – Б. 134-143; Qosimov A.G. O‘zbek adabiyotshunosligida retsepsiya muammosi. Avtoreferat. – Toshkent, 2021. – B. 64 // www.ziyouz.com.

Tadqiqotning maqsadi Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romanini retseptiv poetika tamoyillari asosida tahlil qilish orqali muallif intensiyasi, kitobxon talqini hamda adabiy-tanqidiy retsepsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va o‘ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

retseptiv poetika nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan nazariy hamda tarixiy omillarni tahlil qilish, shuningdek, adabiy asarlarni retseptiv poetika asosida tahlil qilish algoritmini takomillashtirish;

Maya Enjelou ijodini adabiy tanqidchilar tomonidan o‘rganilganlik darajasini va asarlarning adabiy talqin xususiyatlarini o‘rganish, muallif niyatining romanlarda qanday aks etganini tahlil qilish hamda uni kitobxonlar va adabiy munaqqidlarning interpretatsiyasi bilan solishtirish;

“Angladim qafasdagi qush nolasin” romanida ilgari surilgan dolzarb mavzular va g‘oyalarni badiiy ifodalanishini chuqur tahlil qilish orqali asarning adabiy talqinini kengaytirish;

turli madaniy va gender guruhlariga mansub kitobxonlarning asarni qanday qabul qilganini aniqlash, ularning talqiniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish maqsadida so‘rovnomalar, intervyular va onlayn platformalarda bildirilgan fikrlar asosida tahlil o‘tkazish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida afro-amerikalik yozuvchi Maya Enjelouning ijodi va “Angladim qafasdagi qush nolasin” (“I know why the caged bird sings”, 1969) avtobiografik romani tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romanining badiiy-estetik xususiyatlari, adabiy tanqidchilar va kitobxonlar talqini asosida retseptiv poetika doirasida o‘rganilishi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tarixiy-madaniy, biografik, psixologik, retseptiv tahlil tamoyillari, shuningdek, umumilmiy - sifat va miqdor tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

retseptiv poetika tamoyillarining nazariy va tarixiy shakllanishi tizimli tahlili asosida kitobxon turlari tasniflangan, nazariyaning taraqqiyot bosqichlari ajratilgan hamda unga xos tahlil yondashuvi asoslangan;

Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romanining retseptiv poetika nuqtayi nazaridan tahlili asosida muallif niyati va kitobxon interpretatsiyasi o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik aniqlangan, shuningdek, shaxsiyat, irq va jins kabi davrga xos ijtimoiy-madaniy mavzularning badiiy-estetik talqinda ifodalanganligi ilmiy jihatdan isbotlangan;

kitobxonlarning Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romaniga nisbatan bildirgan retsepsiyalari qiyosiy tahlil qilinishi asosida ularning shaxsiy, madaniy va ijtimoiy tajribalari matnni idrok etish va talqin qilishdagi farqlari hamda ta’sir omillari aniqlangan, shuningdek, madaniy kontekstning kitobxon retsepsiyasidagi hal qiluvchi o‘rni ilmiy jihatdan dalillangan;

kitobxon retsepsiyasini o‘rganishda empirik metodlar (so‘rovnomalar, intervyular, davra suhbatlari) va zamonaviy onlayn platformalarni o‘z ichiga olgan

kompleks yondashuvni qo'llash asosida, badiiy asarning talqini ham an'anaviy, ham raqamli muhitda amalga oshirilishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot jarayonida Maya Enjelouning "Angladim qafasdagi qush nolasin" romanining badiiy-estetik xususiyatlari va retseptiv poetika nuqtayi nazaridan tahlili amalga oshirildi, bu esa adabiyotshunoslikda yangi metodologik yondashuvlar va asarlarni o'rganish usullarini shakllantirishga imkon bergan;

romanning adabiy talqini va kitobxonlarning estetik idroki o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilinadi, shuningdek, retseptiv poetika asosida asarning talqiniga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi, bu esa kitobxonlar va adabiy tanqidchilarning asar haqidagi fikr-mulohazalarini yaxshiroq tushunishga yordam bergan;

tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnomalar, intervyular va onlayn saytlardan olingan kitobxonlarning fikr-mulohazalari asosida retseptiv poetika nazariyasini qo'llash orqali asarning talqiniga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi va bu, o'z navbatida, Maya Enjelou asarlarini chuqurroq anglash va tahlil qilish imkoniyatini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslangani, tanlab olingan romanlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar tarixiy-madaniy, yaxlit estetik hamda retseptiv tahlil usullari bilan asoslangani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik nazariyasining "muallif, asar va kitobxon" zanjirida kitobxon o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi, bu esa ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish amaliyotida keng foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati avtobiografik romanlar badiiyati va uning retseptiv poetika nazariyasi asosida olingan ilmiy xulosalardan "Tili o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti", "Adabiy-badiiy tahlil metodlari", "Adabiy tanqidchilik tarixi", "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Adabiy oqimlar evolyutsiyasi" fanlari bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishda hamda darslik, o'quv qo'llanmalari, majmua, lug'atlar yaratishda, doktorlik, magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar, bitiruv malakaviy va kurs ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maya Enjelouning "Angladim qafasdagi qush nolasin" romani adabiy tanqidchilik va retseptiv poetika aspektida tahlil qilinishi bilan bog'liq ilmiy natijalar asosida:

retseptiv poetika tamoyillarining nazariy va tarixiy shakllanishi, kitobxon turlarining tasnifi, nazariyaning taraqqiyot bosqichlari hamda unga xos tahlil yondashuviga doir nazariy-amaliy xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Lingvistika va ingliz adabiyoti" kafedراسi professori, filologiya

fanlari doktori M.Galiyeva rahbarligida 2022-2023-yillarda “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida bajarilgan Erasmus+ dasturining ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419 nomli xalqaro amaliy ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida samarali foydalanilgan (O‘zDJTuning 2024-yil 22-apreldagi 01-234-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, retseptiv poetika nazariyasining tamoyillari asosida asarlarni tahlil qilishning metodologik tamoyillariga oid ma’lumotlar loyiha doirasida yaratilgan o‘quv-metodik majmualarning mazmun-mohiyatini boyitishga xizmat qilgan;

Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romanining retseptiv poetika nuqtayi nazaridan tahlili asosida muallif niyati va kitobxon interpretatsiyasi o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik, shuningdek, shaxsiyat, irq va jins kabi davrga xos ijtimoiy-madaniy mavzularning badiiy-estetik talqini xususiyatlariga oid ma’lumotlardan oid ma’lumotlardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori N.A. Maxmudova rahbarligida 2020-2022-yillarda “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida Britaniya Kengashi (British Council) ko‘magida amalga oshirilgan “English as a school subject” (1683580) nomli xalqaro ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zDJTuning 2024-yil 22-aprel 01-235-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bu mazkur loyiha mazmunining takomillashuviga turtki bo‘lib, Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romanining badiiy xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini yuzaga keltirgan;

kitobxonlarning Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romaniga nisbatan bildirgan retsepsiyalari qiyosiy tahlili asosida ularning shaxsiy, madaniy va ijtimoiy tajribalari matnni idrok etish va talqin qilishdagi farqlari hamda ta’sir omillari aniqlanib, madaniy kontekstning kitobxon retsepsiyasidagi hal qiluvchi o‘rni ilmiy jihatdan dalillangan bo‘lib, ushbu nazariy ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida foydalanilayotgan USB xotira qurilmalaridan ruxsat etilmagan foydalanishni cheklash va monitoring qilishga imkon beradigan mijoz-serverli dasturiy ta’minot ishlab chiqish” nomli amaliy-ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2024-yil 26-apreldagi 10/808-sonli ma’lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, dissertatsiya natijalarining samaradorligi va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar fundamental loyiha doirasida dastur, elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallar tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

kitobxon retsepsiyasini o‘rganishda empirik metodlar (so‘rovnomalar, intervyular, davra suhbatlari) va zamonaviy onlayn platformalarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni qo‘llash asosida, badiiy asarning talqini ham an’anaviy, ham raqamli muhitda amalga oshirilishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lib, ushbu amaliy ma’lumotlardan O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti “Lingvistika va ingliz adabiyoti” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha

falsafa doktori N.A. Maxmudovaning 2024-yilda chop etilgan *History of Literary Criticism* nomli darsligida (ro‘yxatga olish raqami 275-10) retseptiv poetika nazariyasining tadrijiy rivojlanishi, nazariyaning o‘ziga xos xususiyatlariga oid nazariy va amaliy ma’lumotlaridan loyiha doirasida yaratilgan adabiyotshunoslikka oid nazariy materiallar hamda o‘quv-uslubiy majmua yozilishida murojaat qilindi (O‘zDJTuning 2024-yil 22-aprel 01-235-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, darslikning retseptiv poetika nazariyasiga oid bo‘limida uning tadrijiy rivojlanishiga hissa qo‘shgan g‘arb olimlarining ilmiy qarashlarini yoritib berishda hamda asosiy terminlarini tahlil etishda mazkur dissertatsiya muhim manba sifatida keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 2 ta respublika, 4 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, shulardan 2 tasi xorijiy jurnalda e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan, umumiy hajmi 145 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo‘llanilgan metodlar, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Retseptiv poetikaning nazariy va amaliy asoslari**” deb nomlangan. Ushbu bobning “*Retseptiv poetikaning tadrijiy taraqqiyoti va ravnaqi*” nomli birinchi faslida “retseptiv poetika” terminiga keltirilgan turli ilmiy ta’riflar, g‘arb, rus hamda o‘zbek olimlarining retsepsiya tushunchasiga nisbatan ilmiy qarashlari haqida so‘z yuritiladi. Ilmiy-adabiy lug‘atlarda retseptiv poetika va retsepsiyaning turli ta’riflari mavjud. Dastlab, ilmiy-adabiy lug‘atlarni tahlil qilish orqali retseptiv poetika nazariyasining asosiy xususiyatlari hamda tabiati haqida ma’lum xulosalarga erishish imkoniyati yaratildi⁵. Retseptiv poetika nazariyasi “idrok” tanqidi sifatida talqin etilmoqda

⁵ Blackburn S. *The Oxford Dictionary of Philosophy* (2 ed.) // Oxford University Press, 2016. Print ISBN-13:9780199541430. – P. 133; Pozzi E.M., Mohamad G.A. and Gander L.C. *Handbook of Research on Teaching Diverse Youth Literature to Pre-Service Professionals*, 2021. – P. 24. DOI: 10.4018/978-1-7998-7375-4.ch001; Abrams M.H. *A Glossary of Literary Terms / Seventh Edition*, 1998. – P. 256. ISBN: 0-15-505452-X; Baldick Ch. *The Concise Oxford Dictionary of Literary Terms*. Published in the United States By Oxford University Press Inc. – New York: (C) Chris Baldick, 2001. – P. 212; Random House Kernerman Webster’s College Dictionary, K Dictionaries Ltd. – Random House Inc., 2010. – P. 868; “Reader-response

hamda uning kelib chiqishi XX asrning taniqli faylasufi Edmund Gusserlning izlanishlari bilan bog‘liq⁶.

Retseptiv poetika – bu adabiy asarlarning kitobxon tomonidan qanday qabul qilinishini va talqin qilinishini o‘rganadigan nazariy yondashuvdir. Uning asosiy maqsadi, kitobxon va asar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilish, adabiy matnlarning qanday tarzda qabul qilinishi va ular orqali qanday ma’no yuzaga kelishini aniqlashdir. Retseptiv poetika, odatda, matnning o‘ziga emas, balki kitobxonning u bilan o‘zaro munosabati va uning asarni qanday talqin qilishiga e’tibor qaratadi. Bu yondashuv asarlarning turli madaniy, tarixiy va psixologik kontekstlarda qanday qabul qilinishini o‘rganadi.

Matnga emas, balki o‘quvchiga yondashuv yigirmanchi asrning 1970-80-yillar boshlariga kelib keng tarqaldi. L.Rosenblat, H.Yauss hamda V.Iserning bu boradagi ilmiy ishlari ushbu nazariyaning rivojlanishiga sezilarli darajada samara berdi. Natijada badiiy matn talqinida retseptiv poetika yondashuvining “*kutish gorizontlari*” (*Horizons of Expectation*), “*inkor etish*” (*Negation*), “*assimilyatsiya*” (*Assimilation*), “*yaratish*” (*Creation*), “*xayoliy va chin kitobxon dixotomiyasi*” (*the Implied/Actual Reader dichotomy*), “*konkretlashtirish*” (*Concretization*) va “*tafovutlar*” (*Gaps*) kabi mukammal yangi adabiy tushunchalar bilan boyitildi.

Rossiya ilm-fanida o‘quvchi adabiyotning obyekt sifatida 1920-yillardan boshlab o‘rganila boshlagan. Olimlar izlanishlari asosida “*tarixiy-hayotiy kitobxon*”, “*konkret kitobxon*”, “*ko‘rinmas kitobxon*” kabi tushunchalarga asosiy urg‘u berib o‘tganlar. A.Beletskiy, V.Tyupa, V.Markovich, S.Averinsev, A.Ledenev kabi ilmiy tadqiqotchilarning bu boradagi ishlariga nazar solsak, ushbu nazariya asoslarida kitobxon shakllantirilgan matndagi olamni idrok etuvchi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, N.Beresneva hamda E.A.Kokarevaning «Эволюция идеи смерти автора» nomli ilmiy maqolasi alohida ahamiyatga ega, zero, maqolada Roland Bart tomonidan aytib o‘tilgan “muallifning o‘limi” hamda “kitobxon” tushunchalarining ahamiyati atroflicha yoritilgan. “Muallifning o‘limi” tushunchasining paydo bo‘lishi adabiy tanqidchilik nazariyasining qarashlarini biroz susaytirib, ilm-fan ahlining kitobxon va retsepsiya tushunchalariga ko‘proq e’tibor qaratishiga sabab bo‘ldi⁷.

Shunday qilib, g‘arb adabiyotshunosligida retseptiv poetika nazariyasining ilmiy xulosalari tizimlashtirilib, quyidagi taraqqiyot bosqichlari aniqlandi:

1. Isergacha davr (1960-yilgacha): F.Leavis va I.Richards matn mazmuni hamda uning chuqur tahliliga urg‘u berganlar;

criticism”. Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster // <https://www.merriam-webster.com/dictionary/reader-response%20criticism> [Murojaat sanasi: 24.01.2023]; Cuddon J.A. The Penguin dictionary of Literary Terms and Literary Theory 4th ed. – Toronto: Penguin Books, 1999. – P. 991.

⁶ Husserl E. The Idea of Phenomenology. Trans. Alston W., George N. – London: Kluwer Academic Publishers, 1990. 6964. – 84 p.

⁷ Белецкий А.И. Об одной из очередных задач историко-литературной науки. Изучение истории читателя // Белецкий А.И. В мастерской художника слова. – М., 1989. – С. 32; Тюпа В.И. Коммуникативная стратегия чеховской поэтики // Чеховские чтения в Оттаве. – Тверь; Оттава, 2006. – С. 17-32; Маркович В.М. Пушкин, Чехов и судьба «лелеющей душу гуманности» // Чеховиана. Чехов и Пушкин. – М.: Наука, 1998. – С. 10-19.

Аверинцев С.С. Судьба и весть Осипа Мандельштама // Аверинцев С.С. Поэты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 357 с.; Леденев А.В. Поэтика и стилистика В.В.Набокова в контексте художественных исканий конца XIX – первой половины XX в. Дис. ... д-ра филол. наук. – М., 2005. – 44 с.; Барт Р. Смерть автора. В: Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс. 1989. – С. 384-392.

2. Asoschilar davri (1960-1970-yillar): V.Iser, S.Fish va L.Rozenblat matn ma'nosini kitobxon faoliyati bilan bog'liq holda izohlaganlar;

3. Transaksiya-uzatish nazariyasi (1970-1980-yillar): L.Rozenblat kitobxonning madaniy va hissiy tajribasining matn talqiniga ta'sirini o'rgangan;

4. Subyektiv va fenomenologik yondashuvlar (1970-1980-yillar). V.Iser va Hans-Robert Haus talqin ehtimolligini hamda "chin kitobxon" tushunchasini ilgari surganlar;

5. Kitobxonga yo'naltirilgan tanqidchilik (1980-1990-yillar): Stanley Fish va David Bleich kitobxonning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi rolini matn talqinida asosiy o'ringa olib chiqqanlar;

6. Feminizm va madaniy retseptiv poetika (1980-1990-yillar): Janis Radvay va Barbara Herrstein Smith jins, irq va tabaqaning o'qish jarayoniga ta'sirini o'rganishgan;

7. Kognitiv yondashuvlar (1990-2000-yillar): David Miall va Rolf Zvaan o'qish hamda talqin jarayonidagi kognitiv mexanizmlarni tadqiq qilishgan;

8. Etika va ideologiya yondashuvlari (2000-yildan hozirgacha): Jane Tompkins va Michael Warner o'qish jarayonining etika hamda g'oyaviy tomonlarini o'rganishga e'tibor qaratganlar;

9. Hozirgi yo'nalishlar: Judith Fetterley, Elaine Showalter, Bell Hooks, Edward Said, Gayatri Spivak va Homi Bhabha fanlararo yondashuvlar orqali ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy talqinlarga urg'u berib ishlamoqdalar;

O'zbek olimlari ham kitobxon va matn o'rtasidagi munosabatlarga o'zlarining munozarali fikrlarini bildirishgan. D.Quronov⁸ va H.Umurov badiiy matn talqinida kitobxon rolini yuksak baholaydilar. Adabiy tanqid xususida A.Qosimov o'zining "O'zbek adabiyotshunosligida retsepsiya muammosi"⁹ nomli ilmiy ishida ushbu muammoni asar tahlilida besh nafar ishtirokchining o'rnini tushuntirish bilan izohlaydi, ya'ni *asar-yozuvchi-kitobxon-tarjimon-adabiyotshunos*. Shuningdek, muallif retsepsiya muammosi xususida o'zbek ilm-fanida A.Rasulov¹⁰, A.Erkayev¹¹ kabi yozuvchi va adabiyotshunos olimlar ham fikr yuritganliklarini aytib o'tgan. Retseptiv poetika nazariyasi kitobxonni badiiy asarga hayot olib kiruvchi va uning mazmunini o'zining talqini orqali tugal holatga keltiruvchi faol shaxs sifatida ko'radi: "*Kitobxon ko'z o'ngida sodir bo'layotgan hayotni ko'rar (o'qish jarayonida shu hayotni tasavvurida jonlantirar), bu hayot haqida o'zi xulosaga keladi, unda ko'tarilgan masalalarni o'zi yechadi, personajlarga bo'lgan munosabatini o'zi tayin etadi, asardagi yaxshi yoki yomonni o'zi ajratadi*"¹². Ya'ni g'arb va rus adabiyotshunoslari qatorida o'zbek olimlari ham mutoalaa jarayonida badiiy asar mohiyatini ochishni o'quvchiga qoldirishgan, bu bilan kitobxonning badiiy matn talqinidagi rolini yuqori baholashgan.

Yuqorida tilga olingan L.Rosenblatt, Fish, Olson va Iser kabi olimlarning izlanishlari asosida kitobxonlar turlari ajratildi: *Efferent kitobxon (Efferent Reader)* asosan matndan ma'lumot va dalillarni ajratib olishga e'tibor qaratadi;

⁸ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 61.

⁹ Qosimov A.G. O'zbek adabiyotshunosligida retsepsiya muammosi. Avtoreferat. – Toshkent, 2021. – 64 b. // www.ziyonet.uz

¹⁰ Rasulov A. Бадийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарк, 2007. – Б. 85.

¹¹ Эркаев А. Эстетик онг ва бадий билиш // Жахон адабиёти. – Т., 2015. 11-сон. – Б. 134-143.

¹² Умуоров Х. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. 700129, Навоий 30. Нашр № 9-2001. – Б. 102.

Estetik kitobxon (Aesthetic Reader) esa matnni o'qish jarayonida hissiy va xayoliy kechinmalarini boshdan kechiradi; *Kuchli kitobxon (Resistant Reader)* faol tarzda matnni baholaydi va o'z qarashlarini singdiradi; *Strategik kitobxon (Strategic Reader)* o'qish uslubini matnning maqsadiga moslashtiradi; *Xabardor kitobxon (Informed Reader)* adabiy an'analar va tanqidiy yondashuvlar haqida chuqur bilimga ega; *Malakali kitobxon (Competent Reader)* til va adabiy unsurlarni tushunib matnni murakkablik darajasiga mos ravishda tahlil qiladi; *Tajribasiz kitobxon (Inexperienced Reader)* matnni to'liq talqin qilishda qiynaladi; *Ideal kitobxon (Ideal Reader)* matnni to'liq anglash uchun zarur bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi; *Ko'zlangan kitobxon (Implied Reader)* matn orqali nazarda tutilgan kitobxonidir va *Hayotiy kitobxon (Actual Reader)* o'zining shaxsiy, ijtimoiy va madaniy kechinmalarini matn orqali aks ettiradi. Bu olimlarning ishlarida kitobxonlar turli xususiyatlar, o'qish usullari va matn talqini bilan bog'liq ravishda ajratilgan bo'lib, ular matnni qanday qabul qilishi va qanday talqin qilishlari haqidagi tushunchalarni kengaytirgan.

Demak, retseptiv poetika bu – adabiy asarlarning kitobxon tomonidan qanday qabul qilinishi va unga bo'lgan talqining ilmiy tahlilini o'rganadigan nazariy yondashuvdir, bu orqali asarning badiiy va estetik qiymati, kitobxonning hissiy va psixologik holatlari, shuningdek, ularning dunyoqarashi hamda madaniy konteksti tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotning birinchi bobidagi ikkinchi fasl “*Retseptiv poetikada adabiy talqin va tahlil masalasi*” deb nomlanadi va unda badiiy asarni tahlil hamda talqin etishda ushbu ta'limotning ijtimoiy-tarixiy, madaniy, psixologik, uslubiy aspektlari uning asosiy yondashuvlari sifatida qarab chiqilgan. Ushbu yondashuvlarni o'rganish orqali retseptiv poetika nazariyasi doirasida amaliy tahlil algoritmini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Ayni paytda, retseptiv poetika nazariyasining tadqiq etish usullari sifatida kitobxonlar anjumani, ular o'rtasida so'rovnoma tashkil etish hamda insholar tanlovi keltirib o'tilgan¹³. Retseptiv poetika nazariyasi olimlarining tadqiqot usullarini tahlil etgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu nazariya asosidagi tadqiqot quyidagi jarayonlar va shakllarni o'z ichiga olishi mumkin: *kitobxonlar fikrlarini tadqiq qilish maqsadida savolnomalar, davra suhbatlari (focus group discussion), adabiy forumlar va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar tahlillaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot jarayonida nafaqat oliy o'quv yurti talabalari hamda mutaxassislari, balki boshqa soha vakillari hamda jamiyat a'zolarining ishtiroki ham ta'minlandi. Ya'ni retseptiv poetika asosida badiiy asar mutolaasini tahlil qilish uchun gidrid usullardan foydalaish maqsadga muvofiq.*

Davra suhbatlari kitobxonlar Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romanini mutolaa qilib bo'lganlaridan so'ng o'tkazildi, uning kirish qismi badiiy asar muallifining hayoti va ijodi to'g'risidagi qisqa taqdimot bilan boshlandi, so'ngra yig'ilish ishtirokchilarining roman xususidagi umumiy fikrlari bilan tanishib chiqildi, suhbat davomida badiiy asarni chuqurroq tahlil qilish maqsadida bir nechta (Lead-in questions) savollar berib borildi.

¹³ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 467.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarida xilma-xillik hamda aniqlikka erishish maqsadida Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” nomli romaniga nisbatan chet el kitobxonlarining ham bildirgan fikrlarini *Amazon*, *Goodreads*, *Chitay-gorod.ru*, *Labirint.ru*, *Levelib.ru*, *Labirint.ru* kabi adabiy forumlarda o‘rganish, ularning turli tumanligini gender hamda ijtimoiy-tarixiy, madaniy, stilistik jihatdan tahlil etish, shuningdek, o‘zbek kitobxonlarining fikri bilan solishtirish maqsad qilib olindi.

Zero, internet taraqqiyoti tufayli yozuvchi va kitobxon o‘rtasida aloqa qilish imkoniyati ortdi. Adabiy forumlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romaniga nisbatan kitobxonlar fikrini o‘rganish tadqiqotning keyingi bosqichi – savolnoma va rozilik xatini efferent hamda estetik kitobxonlarni hisobga olgan holda tuzish imkonini berdi.

Shunday qilib, savolnoma jami 54 ta savoldan iborat bo‘lib, kitobxonlarning asar xususidagi fikrlarini to‘liq qamrab olishga va tadqiqot natijalarini aniqlik bilan yoritishga qaratilgan. Bunda savolnomani quyidagi bo‘limlar asosida tuzildi:

1) o‘qirmanga eslatma qismi (kitobxonning barcha javoblari maxfiyligi hamda savolnomadagi javoblarning tadqiqot uchun ekanligi);

2) birinchi bo‘lim – shaxsiy ma’lumot bo‘limi (ishtirokchining yoshi, jinsi, kasbi, ijtimoiy-oilaviy holati);

3) ikkinchi bo‘lim – “Angladim qafasdagi qush nolasin” romani asosidagi umumiy savollar (asar qahramonlari, asar shakli, tili, mavzusi, syujeti, voqealari haqida).

Shuningdek, savolnomada asarga nisbatan irq, madaniyat va etnik mavzulardagi savollar ham mavjud bo‘lib, bunda kitobxonlarning asarda ushbu mavzu yuzasidan uchratgan jihatlari haqida va shunga o‘xshash boshqa adabiy asarlar bilan solishtirish imkoni beriladi. Savolnomaning so‘nggi qismi gender tenglik to‘g‘risida tuzilgan savollar bilan nihoyalanadi.

Ilmiy tadqiqotni to‘g‘ri va barcha ilmiy tadqiqot metodologiyasiga mos ravishda tashkil etish maqsadida, uni boshlashdan oldin Maya Enjelouning asarlariga adabiy tanqidchilarning, ya’ni professional kitobxonlarning, bildirgan fikrlari o‘rganildi va umumlashtirildi, muallifning romani mavzuiy tahlil qilindi va umumlashgan xulosalar asosida kitobxonlar uchun so‘rovnoma savollari tuzildi.

Bunda retseptiv poetika nazariyasini qaysi yondashuv (ijtimoiy-tarixiy, madaniy, psixologik, uslubiy) jihatdan tadqiq etishni belgilab olish darkor, ya’ni kitobxonlarning talqiniga ularning madaniy kelib chiqishi ta’sir etadimi yoki ular asarga nisbatan jinsiy hamda shaxsiy tajribalaridan kelib chiqib yondashadilarmi? Tadqiqotchi o‘z oldiga tadqiqot qilishda yo‘l ko‘rsatuvchi savollarini qo‘yib olishi lozim. Shu o‘rinda kitobxon-muallif munosabatini hisobga olish zarur: retseptiv poetika nazariyasi, shuningdek, kitobxon va muallif o‘rtasidagi dinamik munosabatga urg‘u beradi.

Keyingi bosqichda esa tadqiqot metodologiyasini, ya’ni tadqiqotning vazifalariga mos keluvchi yo‘nalishni tanlab olish darkor. Keng tarqalgan metodlar: so‘rovnomalar, intervyular yoki matn tahlilidan iborat. So‘rovnomalar kitobxonlarning talqinini sifat va miqdor ma’lumotlar ko‘rinishida ifodalash imkonini bersa, intervyular har bir kitobxonning individual talqinini yanada

chuqur tadqiq qilishga yordam beradi. Matn tahlili kitobxonlarning asarga nisbatan munosabatining shakllanishiga sabab bo'luvchi adabiy-badiiy omillarni analiz qilish orqali asarning o'zini yaqindan o'rganish imkonini beradi. Yana bir ahamiyatga molik jihatlardan biri, tadqiqot uchun kerakli vositalarni shakllantirish va to'plash: tanlangan metodologiyaga, asosan, savolnoma yoki intervyu namunalari tadqiqot vositalari sifatida ishlab chiqiladi.

Retseptiv poetika nazariyasi asosida tahlil metodologiyasini Maya Enjelouning "Angladim qafasdagi qush nolasin" romaniga tatbiq etish izchillikni hamda tadqiqot etikasiga amal qilish kabi omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda kitobxonning interperetatsiyasini asar mazmunidagi mavzular bilan cheklamaslik, balki shaxsiy tajriba hamda bilimlarini inobatga olgan holda tahlil qilish usullarini, shuningdek, faqatgina miqdor usuli emas, balki sifat usuliga alohida ahamiyat bergan holda retseptiv poetika nazariyasining tahlil metodologiyasini qo'llash lozim.

"Angladim qafasdagi qush nolasin" romanining badiiy-estetik mohiyati ikkinchi bobning "Maya Enjelouning "Angladim qafasdagi qush nolasin" romani adabiyotchi-munaqqidlar talqinida" deb nomlangan 1-faslida XX asrning mashhur afro-amerikalik yozuvchisi Maya Enjelouning hayoti va ijodi, ayniqsa, uning birinchi avtobiografik romani – "Angladim qafasdagi qush nolasin" asariga adabiy tanqidiy yondashuvlar tahlili ushbu dissertatsiyaning asosiy mavzusini tashkil etadi. Enjelouning shaxsiy tajribasi, ijodiy faoliyati hamda uning asarlarida ko'tarilgan asosiy mavzular – irq, jins, shaxsiyat, ijtimoiy adolat va o'z-o'zini anglash masalalari keng qamrovda o'rganildi.

Tahlil natijasida Maya Enjelou ijodi uch asosiy davrga ajratildi: 1) birinchi davrda (1960-1970-yillar) u asosan avtobiografik nasr va she'riyatga e'tibor qaratadi, o'zining ilk asarlarini yaratadi; 2) ikkinchi davrda (1980-1990-yillar) ijtimoiy va shaxsiy muammolarni kengroq qamrab oladi, she'riyat va bolalar adabiyotida ham faol bo'ladi; 3) uchinchi davrda (2000-yillardan keyin) esa chuqur falsafiy va ma'naviy qarashlar bilan xarakterlanadi.

Muallifning ijodi va romanining M.Luptonning "Maya Angelou: Tanqidiy asar" (1998) va D.Makfersonning "Order Out of Chaos: Maya Enjelouning avtobiografik asarlari" (1990) kabilar. S.Kudjoe va M.Vashington, R.Evans, D.Grumbach, J.Jordan, A.Nilsen, D.Makferson, A.Miller, B.Kristian, L.Henry hamda P.Lespinas, M.Lupton, Ch.Vol, L.Koolish kabi adabiy munaqqidlarning tanqidiy fikrlarini o'rganish orqali asosiy badiiy-estetik xususiyatlari aniqlandi¹⁴.

¹⁴ Washington M.H. "The Darkened Eye Restored": Notes Toward a Literary History of Black Women". Within the Circle: An Anthology of African American Literary Criticism from the Harlem Renaissance to the Present, edited by Angelyn Mitchell. – New York, USA: Duke University Press, 1994. – P. 442-453 // <https://doi.org/10.1515/9780822399889-035>; Selwyn R.Cudjoe. "Maya and the Autobiographical Statement", Black Women Writers (1950-1980) A Critical Evaluation, ed. Mari Evans. – New York: Anchor Press/Doubleday, 1984. – P 14; Evans R. Maya Angelou's I Know Why the Caged Bird Sings And the Advantages of a Pluralist Close Reading. SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou // The College Language Association Journal. Volume 58. Nos. 1-2. CLAJ (ISSN 0007-8549), 2014. – P 36-47; Grumbach D. "Maya Angelou 4 April 1928". Sharon R. Gunton ed. Contemporary Literary Criticism, Gale Research Inc 1980. – P. 12; Jordan J. "Maya Angelou 4 April 1928". Sharon R. Gunton ed. Contemporary Literary Criticism, Gale Research Inc., 1980. – P. 13; Nilsen A.P. "Maya Angelou 4 April 1928". Sharon R. Gunton ed. Contemporary Literary Criticism, Gale Research Inc., 1980. – P. 14; McPherson D.A. Order of Chaos: The Autobiographical Works of Maya Angelou. – New York: Peter Lang, 1990. – P. 90; Miller A.D. "Angelou". Contemporary Authors. Regents of the University of Minnesota, 2009. – P. 23; Christian B.T. "Angelou". Contemporary Authors, 1987;

“Angladim qafasdagi qush nolasin” – Enjelouning o‘z hayoti va shaxsiy kurashini aks ettiruvchi avtobiografik asar bo‘lib, u afro-amerikalik ayolning bolalikdagi og‘irliklari, irqiy va ijtimoiy chegaralardan ozod bo‘lishga intilishi kabi murakkab mavzularni yoritadi. Tanqidchilar bu asarni juda yuqori baholashadi. Masalan, S.Smith uni Richard Wright bilan taqqoslab, bolalikdagi muammolar orqali erkinlikka intilishning chuqur tasvirlanganligi uchun yuqori baholaydi. Enjelouning asaridagi ruhiy kuch va so‘zning ozodlikka olib keluvchi ta’siri S.Kudjoe hamda M.Vashington tomonidan alohida e’tirof etilgan. Ular Enjelou shaxsiyat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, diniy alluziyalar va metaforalarni muvaffaqiyatli qo‘llaganligini ta’kidlaydilar. Tanqidchi R.Evans esa uning ijodida formalizm, feminist tahlil, marksist yondashuv va strukturalizm kabi turli nazariy usullardan foydalanganini qayd etadi, bu asarning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. M.Lupton esa Enjelou she’riyatida afro-amerikaning og‘zaki ijodiy an’alarining ta’siri sezilarli ekanligini ta’kidlab, asarning she’riy va ritmik xususiyatlarini yuqori baholaydi. Shuningdek, Burr Z. Enjelouning avtobiografik asarlarini “ochiq-oshkora va ishonchli” deb baholab, ular shaxsiyning o‘rniga ijtimoiy va umumiy tajriba sifatida qabul qilinishi kerakligini ta’kidlaydi. F.L.Phillips esa Enjelouning o‘z uslubiga ega bo‘lib, uni boshqa afro-amerikalik yozuvchilardan farqlantiruvchi jihatlar borligini qayd etadi.

2-faslida “*Maya Enjelou romanining badiiy o‘ziga xosligi*” deb nomlangan bo‘lib, bunda tadqiqotchi xorijiy adabiy munaqqidlarning muallif asari xususidagi fikrlarini o‘rgangan holda o‘zining adabiy-badiiy tahlillarini amalga oshirgan. Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” (“I Know Why the Caged Bird Sings”) romani – afro-amerikalik ayolning irqiy kamsitish va shaxsiy iztiroblarga qarshi kurashi haqida yozilgan avtobiografik asardir. 1969-yilda chop etilgan bu roman inson qadri, ozodlik, ruhiy sabr-bardosh kabi dolzarb mavzularni o‘zida mujassam etadi.

Roman 36 bobdan iborat bo‘lib, voqealar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xronologik tartibda emas, balki muallif xotiralari asosida shakllangan. Asarda bolalik va o‘smirlik yillaridagi tajribalar, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurash va shaxsiy o‘sish poetik hamda ramziy ifodalar orqali tasvirlangan.

Asarning nomi “Angladim qafasdagi qush nolasin” ramziy ma’noga ega. Qafasdagi qush – ozodlikka intilayotgan, biroq zulm va zo‘ravonlik bilan cheklangan inson ruhining timsolidir. Muallif shunday deydi: *“They write because they have something to say, something about life, sometimes something about pain, something about love, even something about laughter. I wrote the book*

Regents of the University of Minnesota, 2009. – P. 23; Lorraine M.H. The “Voice of Melody”: Healing and Transformation in Maya Angelou’s Life Narratives. *CLA Journal*, 2014. Vol. 58. No. 1/2. SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou (SEPTEMBER/DECEMBER 2014). – P. 48-64; Lupton M.J. “When Great Trees Fall”: The Poetry of Maya Angelou. *CLA Journal*, 2014. Vol. 58. No. 1/2. SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou (SEPTEMBER/DECEMBER 2014). – P. 77-90 (14 p.); Wall Ch.A. Maya Angelou: Toward a Criticism Worthy of Its Subject. SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou.

The College Language Association Journal, 2001. Volume 58. Nos. 1-2. CLAJ (ISSN 0007-8549). – P. 9; Harris M., Aguero K. A gift of Tongues: Critical Challenges in Contemporary American Poetry. – Athens, Georgia: U of Georgia, 1987. – 342 p.

because “Bird Sings Why The Caged I Know” is a song. A bird doesn’t sing because it has an answer, it sings because it has a song”¹⁵, ya’ni inson, og’ir sharoitlarda ham, orzu va umidini saqlab qoladi.

Asarning asosiy qahramoni – o’zi Maya Angelou bo’lib, uning ruhiy sinovlari va erkinlikka intilishi roman markazida turadi. Maya bolalikda jinsiy zo’ravonlik, irqiy kamsitish kabi og’ir sinovlarga duch keladi, biroq bu iztiroblar uning shaxsiy o’sishi va mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga olib keladi. Muallif Villi amakisining nogironligi orqali ijtimoiy to’siqlarga qaramay inson g’ururi va matonatini quyidagicha ifodalaydi: “Fate not only disabled him but laid a double-tiered barrier in his path. He was also proud and sensitive. Therefore he couldn’t pretend that he wasn’t crippled, nor could he deceive himself that people were not repelled by his defect. Only once in all the years of trying not to watch him, I saw him pretend to himself and others that he wasn’t lame”¹⁶. Albatta, bolalarcha nigohida Maya Enjelouni erta ulg’ayganini payqash qiyin emas, ammo asardagi dialoglarda amakisining holati yanada jonlanadi va ushbu achinish yozuvchidan kitobxonga ko’chadi.

Roman uslubiy jihatdan turli badiiy detallar bilan boyitilgan. Til uslubi og’zaki xalq nutqiga yaqin, tabiiy va samimiy bo’lib, o’quvchini bevosita guvoh sifatida jalb etadi. Masalan, Stamps shaharchasining tasviri orqali muallif ijtimoiy izolyatsiya va qashshoqlik muhiti haqida shunday deydi: “The barrenness of Stamps was exactly what I wanted, without will or consciousness. After St.Louis, with its noise and activity, its trucks and buses, and loud family gatherings, I welcomed the obscure lanes and lonely bungalows set back deep in dirt yards”¹⁷.

Asarda bolalikdagi ruhiy jarohatlar, oilaviy munosabatlar, jinsiy zo’ravonlik, irqiy zulm va axloqiy qadriyatlar kabi mavzular kuchli hissiy hamda badiiy ifoda bilan aks ettirilgan. Maya Enjelou o’zining hayotiy haqiqatga sodiqligi, badiiy mahorati va falsafiy chuqurligi orqali nafaqat afro-amerikaliklarning tarixiy taqdirini, balki insoniyatning ozodlik va qadr-qimmat uchun umumiy kurashini badiiy shaklda yuksak darajada ifodalagan.

Bobning uchinchi fasli esa “Romanning mavzu jihatidan tasniflanishida rivoya usulining badiiy vazifasi” deb nomlandi. Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romani uning bolalik xotiralaridan bayon qiluvchi asar bo’lsada, har bir bobi yangi hikoyadir. Yozuvchi ushbu hikoyalar orqali, ayni

¹⁵ The Washington Post, Maya Angelou’s new stamp uses a quote that may not be entirely hers, 2015. April 4; The Maya Angelou stamp features a beautiful quote – that someone else may also have written by Lonnae O’Neal, Timestamp: 2015-04-04 19:10:00, No Page Number Listed, Washington D.C. (ProQuest National Newspapers Premier) // URL: <https://quoteinvestigator.com/2015/12/03/bird-sing/#f+12575+1+22> [Murojaat sanasi:27.05.2024].

¹⁶ Yana o’sha manba. – P. 18. Chapter 2. “Taqdir uning nafaqat imkoniyatini cheklagandi, balki umr yo’liga o’tib bo’lmas to’siqlar qo’yib tashlagan edi. U mag’rur va ta’sirchan ham edi. Shuning uchun ham, u o’zini nogiron emasdek tuta olmasdi yoki o’zini nogiron emasligiga ishonitirib aldash qo’lidan kelmas edi. Shu kungacha buni payqamaslikka harakat qilib kelgan bo’lsamda,

bir safar o’zini boshqalarga nogiron emasligini ko’rsatishga urunganing guvohi bo’ldim” (tarjima o’zimizniki – M.U.).

¹⁷ Angelou M, The Collected Autobiographies of Maya Angelou. The Modern Library, New York. Compilation copyright © 2004 by Random House, Inc. 2004. – P 63

“Stampsning shovqinlardan holi va kimsasizligi aynan men xohlagan narsa edi, hech qanday xohishlarsiz va hayollarsiz. Sent-Luisdagi shovqin va to’xtovsiz harakatlar, yuk mashinalari va avtobuslar, baland ovozdagi oilaviy yig’inlardan so’ng, jon deb chuqur hovlilarda o’rnatilgan qorong’i xiyobonlar va yolg’iz bungalovlarni qarshi oldim.” (chapter 14) (tarjima o’zimizniki – M.U.)

paytda, o'z ahamiyatini yo'qotmagan va kundalik hayotimizda uchrab turgan turli-tuman dolzarb mavzularni yoritishga harakat qilgan. Shunday ekan, mavzu jihatidan asar hikoyalarini uchta guruhga ajratish mumkin: *bolalik, oila, inson va jamiyat*. Ushbu mavzular ham, o'z navbatida, *yetimlik, tarbiya, jinoyat, birodarlik, irqchilik, insoniy tenglik, yolg'iz ayollar qismati, gender tenglik* muammolari ta'riflaydi.

Muallif avtobiografik hikoya orqali irqiy kamsitish, gender zo'ravonligi va jamiyat tomonidan yuklatilgan sukut kabi og'riqli tajribalarni ochib beradi. "Qafasdagi qush" obrazining ramziy ma'nosi ozodlik va o'zligini topishga bo'lgan intilishni ifodalaydi. Enjelou so'z vositasida inson qo'rquvini yengib, o'z "men"ini tasdiqlash yo'lini ko'rsatadi. Poetik uslub va ichki monologlar orqali kitobxonni bevosita jarayonga jalb qilgan holda, asarni retseptiv poetika nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini yaratadi.

Romanning g'oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish tadqiqot bosqichlarini to'g'ri belgilash, so'rovnomasavollarining tarkibini asoslash hamda kitobxonlarning izohlarini asar mazmuni bilan muvofiqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **"Angladim qafasdagi qush nolasin" romanida kitobxonlar estetik idroki** nomli uchinchi bobi ko'p jihatdan tadqiqot ishining amaliy ahamiyatga ega qismi hisoblanadi. Bunda g'arb hamda sharq kitobxonlarining interpretatsiyasi retseptiv poetika nazariyasi asosida qiyosiy tahlil etilgan va bu jarayon asosida olingan xulosalarni jadvashtirilganligi tadqiqotning yakuniy xulosalariga erishishga asos bo'lgan. Ushbu bobning 1-fasli *"Muallifning niyati va kitobxonlar mutolaa jarayoni dialektikasi"* deb nomlanib, muallifning niyati, adabiy tahlilda nazariy atama sifatida uning adabiy asar yaratishda hayolan nazarda tutgan istagini yoki maqsadlarini anglatadi. Bu syujet, personajlar, mavzular kabi elementlar orqali muallif tomonidan ko'zda tutilgan ma'no yoki g'oyani ochish maqsadida matnni o'rganish va talqin qilishni o'z ichiga oladi. D.Quronov "muallif niyati" tushunchasini ijodiy niyatga bog'laydi. Ya'ni muallifning dunyo moddiyatlarini o'ziga xos uslubda idrok etishi hamda ularni qog'ozga tushirishi ijodiy niyatning ijrosidir¹⁸. Muallifning ijodiy niyat hamda uning ijrosi xususidagi fikri shu bilan ahamiyatliki, ijodiy niyat muallif yashayotgan makon va zamon ta'sirida bo'lsada, asarni yaratayotgan lahzada yozuvchi real hayotdan uzoqlashadi va o'zining ijodiy-ideal olamida yashay boshlaydi, – deya fikr bildiradi. Yozuvchining ijodi, shaxsiyati, qahramonlari, mavzulari, g'oyalari va obrazlari uning tilida mujassamlashgan bo'lib, faqat u orqali tushunilishi mumkin¹⁹.


Biroq retseptiv poetika nazariyasi kitobxonning roli va talqiniga katta ahamiyat berib, muallif g'oyasini va matnga berilgan ma'noni inkor etish hamda talqinlarning haddan tashqari subyektiv bo'lishi kabi kamchiliklarga ega. Shu munosabat bilan, kitobxonning muallif niyatini qanchalik to'g'ri anglaganligini hamda uning natijasida qanday yangi talqinlarning yuzaga kelganligini ilmiy

¹⁸ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – B. 88 // www.ziyouz.com [05.05.2024].

¹⁹ Кубрякова Е.С. О понятиях места, предмета и пространства // Логический анализ языка. Языки пространств. – М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 91.

asosda tahlil etish zarur, degan xulosaga kelinadi. Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin“ romanini yozishdan niyati va maqsadi hamda uni qay tarzda yozishga qaror qilganligi, nima uchun aynan avtobiografik janrni tanlaganligi haqida ikkinchi bobning birinchi faslida aytib o‘tilgandi. Kitobxonlar hamda muallif o‘rtasidagi zanjir hisoblangan badiiy asarning o‘qirmanlar tomonidan qay tarzda talqin etilishi, shuningdek, ijodkorning asarni yozishdan maqsadi va kitobxonlarga asar orqali yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyasini qanchalik bilib olganliklarini, avvalo, muallifning niyatini to‘liq anglaganligini ma‘lum bir mulohazaga kelgan holda talqin qilish mumkin. Buning uchun izlanuvchidan badiiy asar muallifining asar xususida bergan intervyularini, yozma suhbatlarini o‘rganish talab etiladi.

1-jadval



Maya Enjelouga “Angladim qafasdagi qush nolasin” romani shon-shuhrat olib kelgan va ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lgan. Deyarli barcha suhbatlarda muallif ushbu asarga qayta va qayta murojaat etganligini, uni yozishdan maqsadi – intensiyasini tushuntirishga harakat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Muallifning niyati badiiy asar yaratilishida uning ijodiy olamini belgilovchi hamda ifodalovchi asosiy omil hisoblanadi. Aynan ushbu omil tufayli muallif adabiy asarni kitobxonga taqdim etadi. Muallifning shaxsiy qo‘lyozmalari, kundaligi hamda bugungi kunda mavjud intervyulari uning adabiy asarni yaratishiga turtki bo‘lgan intensiyasi xususida fikr yuritish imkonini beradi. Kitobxonlarning badiiy asar xususida interpretatsiyalarini o‘rganish esa muallif niyatini ular qay darajada anlay olganliklarini aniqlash yoxud kitobxon interpretatsiyasi va muallif niyati o‘rtasidagi farqli hamda o‘xshash jihatlarni aniqlash, ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni farqlash imkonini beradi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “*“Angladim qafasdagi qush nolasin” romani g‘arb mamlakatlari kitobxonlari nazdida*” deb nomlanib, ushbu faslda yuqoridagi roman bo‘yicha g‘arb mamlakatlari kitobxonlarining taassurotlarini o‘rganish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda berilgan fikrlarni to‘plab, tasniflab tahlil qilinganligi ko‘rsatib o‘tildi. Buni amalga oshirish uchun “Facebook”, “Goodreads” va “Amazon” tarmoqlaridan keng foydalandik. Facebookda Maya

Enjelouning sahifasi mavjud bo‘lib, unda asarlari bilan yaqindan tanish bo‘lgan kitobxonlar o‘zlarining taassurotlari, fikr-mulohazalarini yozishgan. “Goodreads” va “Amazon book” sahifalarida esa ko‘proq kitobxonlar adabiy sharh qoldirishgan hamda reytingni belgilashgan. Ijtimoiy tarmoqlarda kitobxonlar orasidagi bunday farq tarmoqlar turi bilan bog‘liq: “Facebook” ommaviy ijtimoiy tarmoq, “Goodreaders” va “Amazon book” esa maxsus kitobxonlar saytlari hisoblanadi.

Tahlil natijalarimiz ikki bo‘limga ajratildi – kitobxonlarga oid shaxsiy hamda ularning fikrlaridan kelib chiqqan holda muallif, kitobxon, asar mazmuni va shakliga oid mazmuniy ma’lumotlar:

2-jadval

1-bo‘lim. G‘arb kitobxonlarining shaxsiy ma’lumotlari			
Umimiy soni 431	Facebook ²⁰ (Bookish literature)	Goodreads ²¹	Amazon ²²
	151/44	186	50
Jinsi	60 % ayollar va 40 % erkaklar		
Yoshi	20-60		
Kasbi	Bloger (6), yozuvchi(4), o‘qituvchi (2), noma’lum kitobxon	Bloger (8), yozuvchi(5), o‘qituvchi (3), noma’lum kitobxon	Deyarli kasbi haqida ma’lumot olish imkoni yo‘q
Oilaviy holati	Noma’lum aniqlash imkoniyati mavjud emas. Ayrim kitobxonlar ota yoki ona sifatida fikr qoldirishgan.		
2-bo‘lim. Aniqlangan mavzu va muammolar			
1. Muallif shaxsiyatiga oid	1. Samimiy	Ochiq, to‘g‘ri so‘zlik	
	2. Erkin ruhiyat	Qalb va erkinlik	
	3. Jasorat	O‘ziga ishonch, kuch	
2. Kitobxon shaxsiyatiga oid	4. Hissiyotlar	Sevgi, umid, g‘urur, yurakni titratuvchi	
	5. Erkin ruhiyat		
3. Asar mavzusiga oid	6. Irqchilik	Inson huquqlari uchun kurash, qora tanlilarning tahqirlanishi	
	7. Bolalik	Travma, omon qolgan (survivor)	
	8. Hayot sabog‘i	Namuna, tajriba, motivatsiya beruvchi	
4. Asar shakliga oid	9. Yumoristik	Zavqli, hazilkash (good sense of humor)	
	10. Tarixiy	O‘qishli, adabiyotning o‘rni	
	11. Sarguzasht	Sayohat, safari	

²⁰ <https://www.facebook.com/share/p/yHmh9QDkRrSvbgcx/?mibextid=oFDknk> [Murojaat sanasi:09.03.204]

²¹ https://www.goodreads.com/book/show/13214.I_Know_Why_the_Caged_Bird_Sings?from_search=true&from_srp=true&qid=Uqilm8SEKf&rank=1 [Murojaat sanasi:09.03.204]

²² https://www.amazon.com/Know-Why-Caged-Bird-Sings/dp/0345514408/ref=sr_1 [Murojaat sanasi:09.03.204]

Birinchi bo‘limda kitobxonlarning shaxsiy ma’lumotlari asosida miqdor ma’lumotlari jamlangan bo‘lsa, ikkinchi bo‘lim o‘zida asarni mutolaa qiluvchilarning sharhlari asosida to‘plangan sifat natijalarini mujassam etadi. Rus kitobxonlarining roman haqidagi izohlarini mavjud rus onlayn adabiy forumlari orqali yig‘ishga va tahlil qilishga erishildi. Yig‘ilgan ma’lumotlar xuddi G‘arb kitobxonlarining ma’lumotlari singari quyidagi ikkita bo‘limda ifoda etildi:

3-jadval

1-bo‘lim. Rus kitobxonlarining shaxsiy ma’lumotlari				
Umumiy soni	Chitay-gorod.ru ²³	Livelib.ru work ²⁴	Litres.ru books ²⁵	Labirint.ru books ²⁶
41	10	24	4	3
Jinsi	80 % ayollar va 20 % erkaklar			
Yoshi	24-40			
Kasbi	2 nafar bloger, 1 nafar filolog va 3 nafar ingliz tili o‘qituvchisi			
Oilaviy holati	Noma’lum, aniqlash imkoni mavjud emas. Ota yoki ona sifatida fikr qoldirilmagan.			
2-bo‘lim. Aniqlangan mavzu va muammolar				
1.Muallif shaxsiyatiga oid	1. Samimiylik	Donolik bilan oshkor etish, haqiqat		
	2.O‘zlik	Shaxsiy fikr, shoirona qarashlar, pragmatik, anglash, og‘riq		
2.Kitobxon shaxsiyatiga oid	3.Hissiyotlar	Shodlik, achinish		
	4. Omon qolish	Nochorlikdan shon-shuhratga qadar		
3.Asar mavzusiga oid	5. Irqchilik	Diskriminatsiya, qora tanlilar va oq tanlilar		
	6. Ayollar haq-huquqi	Ayol bo‘lish qiyin		
	7. O‘smirlik va bolalik	Ulg‘ayish, bolalarcha hayotga nigoh		
	8. Ta’lim-tarbiya	Oila		
4.Asar shakliga oid	9. Realizm	Haqiqiy hayotdan olingan, achchiq hayot, hayot saboqlari		

Yuqoridagi 1-bo‘limda asosan to‘rtta rus onlayn forumlari: Chitay-gorod.ru, Livelib.ru, Litres.ru, Labirint.ru orqali aniqlashga erishilgan raqamli ma’lumotlar joylashtirildi. Jadvalda 41 ta kitobxonning Maya Enjelouning “Angladim qafasdagi qush nolasin” romaniga nisbatan bildirilgan izohlari tahlili qayd qilindi.

Dastlab, onlayn izohlarda eng ko‘p uchragan kalit so‘zlar orqali kitobxonlarning fikrlarini jadval asosida berishga erishildi. Shu asnoda

²³ <https://www.chitay-gorod.ru/product/poetomu-ptica-v-nevole-poet-2825621> [Murojaat sanasi:10.04.2024]

²⁴ <https://www.livelib.ru/work/1000445827/reviews-ya-znayu-otchego-ptitsa-poet-v-kletke-majya-anzhelu> [Murojaat sanasi:10.04.2024]

²⁵ <https://www.litres.ru/book/mayya-andzhelu/poetomu-ptica-v-nevole-poet-68287706/chitat-onlayn> [Murojaat sanasi:10.04.2024]

²⁶ <https://www.labirint.ru/books/778874/> [Murojaat sanasi:10.04.2024]

kitobxonlarning onlayn fikrlarini 9 ta mavzu jihatdan tasniflandi, ular ham o‘z navbatida to‘rtta yirik kategoriyalarga birlashtirildi .

Ikkinchi bo‘limga nazar tashlasak, birinchi ulkan kategoriya “Muallif shaxsiyatiga oid” bo‘lib, o‘zida ikkita mavzuiy tasnifni mujassamlashtiradi. G‘arb hamda rus kitobxonlarining izohlari juda ko‘p jihatdan bir-biridan farq qiladi. Mavzuiy tasniflanish ham, izohlarida kitobxonlarning o‘z shaxsiyatiga asar voqealarini bog‘lashlari ham o‘ta farqlidir. G‘arb kitobxonlari asarga nisbatan xususiy mavzularni ajratib ko‘rsatgan bo‘lsalar, rus kitobxonlari asarga nisbatan fikrlarini umumiy mavzular bilan bog‘laydilar.

4-jadval

Yevropa va rus kitobxonlarining irqchilik masalalariga nisbatan talqinlari hamda munosabatlari			
Kitobxon jinsi	Fikr bildirish uslubi	Til va uslub	Shaxsiy tajriba
Ayollar	Irqchilikning yengib o‘tilishida insoniy fazilatlar muhim ekani yozuvchi misolida aytilgan.	Umumiy uslubda bayon etilgan, aniq misollar bilan asoslanmagan.	Bunday muammolar hozirgi kunda ham mavjudligi ta’kidlangan.
Erkaklar	Asarda qora tanlilarning shaxsiy tajribasi tilga olingan.	Irqchilik faqat mavzu sifatida eslatib o‘tilgan.	Shaxsiy tajriba haqida fikr bildirilmagan yoki bayon qilinmagan.
Kitobxonlarining gender masalalariga nisbatan talqinlari hamda munosabatlari.			
Kitobxon jinsi va turi	Fikr bildirish uslubi	Til va uslub	Shaxsiy tajriba
Oilali ayollar	Fikrlar batafsil, qahramonlar tahlili berilgan. Asarning asosiy va tarkibiy mavzulari yoritilgan.	Ko‘pincha birinchi shaxs birlikda, ba’zida majhul nisbatda ifodalangan.	Feminizmga ijobiy munosabat bildirilgan. Kuchli ayol obrazi alohida ta’kidlangan. Oila va shaxsiy tajriba misol sifatida keltirilgan.
Turmushi bo‘lmagan ayollar	Fikrlar qisqa, faqat asosiy mavzular tilga olingan.		Oila va yaqinlariga doir shaxsiy tajribalar misol sifatida berilgan.
Oilali erkalar			
Bo‘ydoq erkaklar			

G‘arb kitobxonlari izohlarini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, ayollar hamda erkaklarning izohlarida o‘xshashliklar mavjud. Ya’ni har ikkalasi ham majhul nisbat hamda birinchi shaxs birlik shaklidan juda ko‘p o‘rinlarda foydalanganlar. Har ikkala turdagi kitobxonlar ham asar voqealarini o‘z shaxsiy hayotlari bilan bog‘lay olganlar. Ammo mavzuiy ta’riflash bo‘yicha ayol kitobxonlarda hissiy-emotsional so‘zlar hamda asar mavzusining tarkibiy qismlari bilan ta’rif berish holatlari ko‘p uchraydi. Erkak kitobxonlarda esa aksincha, ular asosiy mavzulargagina yondashganlar.

Uchinchi bobning so‘nggi fasli *“Angladim qafasdagi qush nolasin” romani o‘zbek kitobxonlari talqinida* deb nomlanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda mazkur roman kitobxonlik bloglari va adabiy onlayn platformalarda deyarli muhokama qilinmagani sababli, maxsus anketa ishlab chiqishga qaror qilindi. Ushbu anketaga respondentlar to‘g‘risidagi umumiy ma‘lumotlar hamda asarning g‘oyaviy-mavzuy va badiiy o‘ziga xosligini qanday qabul qilganini aniqlashga qaratilgan ochiq savollar kiritildi. Shuningdek, tadqiqot doirasida fokus-guruhlarda muhokamalar ham tashkil etildi.

Maya Enjelouning *“Angladim qafasdagi qush nolasin”* romaniga retseptiv poetika nuqtayi nazaridan mo‘ljallangan kompleks tahlilni amalga oshirish maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma jarayonida O‘zDJTuning *“Lingvistika va adabiyot nazariyasi”* kafedrasida huzuridagi *“Book Club”* a‘zolari (2023-yil) hamda shu yo‘nalishda tahsil olayotgan magistratura va bakalavriyat talabalari (2024-yil) faol ishtirok etdilar.

Tadqiqot natijasida to‘plangan miqdor va sifat ma‘lumotlar tizimlashtirilib, uchta jadval shaklida taqdim etildi. Birinchi jadvalda o‘zbek kitobxonlarining shaxsiy ma‘lumotlari berilgan. Ikkinchi jadvalda esa javoblarning mavzuy tasnifi aks ettirilgan. Uchinchi jadvalda kitobxonlarning sharhlari asosida umumiy xulosalar keltirilgan bo‘lib, ular asarni o‘zbek madaniy kontekstida qanday talqin qilganini aniqlash imkonini berdi.

5-jadval

O‘zbek kitobxonlarining shaxsiy ma‘lumotlari			
Umimiy soni 48	“Lingvistika va adabiyot nazariyasi” kafedrasining “Book Club” kitobxonlari (2023)	“Lingvistika adabiyot nazariyasi kafedrasida” magistratura bo‘limining adabiyotshunoslik yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar (2024)	Nomutaxassis kitobxonlar (2024)
	14	24	10
Jinsi	75 % ayollar (36), 25 % erkaklar (12)		
Yoshi	20-40		
Kasbi	19 nafar talaba, 15 nafar talaba-o‘qituvchi, 3 nafar ingliz tili o‘qituvchisi, 11 nafar boshqa kasb egalari (despatcher)		
Oilaviy holati	15 ta turmush qurmagan, 31 ta oilali, 2 ta ajrashgan shaxslar		
Aniqlangan mavzu va muammolar			
1.Muallif shaxsiyatiga oid	1.Samimiylik	Sabr, kuch, ochiq –oydinlik, erkinlik, ozodlik, umid, irodalilik	
	2.O‘zlik	Hayotni sevish, kuchli ayol, ulg‘ayish, (mature), orzular ortidan, adabiyotga muhabbat, Gandiga o‘xshatish	
2.Kitobxon shaxsiyatiga oid	3.Hissiyotlar	Shodlik, achinish, bosim, asabiylik, ishtiyoq beruvchi, sabr, ehtiyotkorlik, erkinlik, kuchli bo‘lish	

	4. Shaxsiy hayot bilan bog'lash	Qiz va ona, buvi-nabira, aka-singil, qiz bola bo'lib ulg'ayish kechinmalari, gender notenglikka uchraganligi, qo'shnilariga, maktab o'qituvchisi, o'rtoqlarining hayoti, yaqin insonlarga o'xshatish
3.Asar mavzusiga oid	5. Irqchilik	Diskriminatsiya, qora tanlilar va oq tanlilar, qullik, qora tanli bo'lish va "skin color" muammolari
	6.Ayollar haq-huquqi, feminizm	Ayolning o'rnini faqat uyda, bo'ysunuvchanlik, ish faoliyatidagi notenglik, yetarlicha ta'lim olish va fikr erkinligi yo'qligi
	7.O'smirlik va bolalik	Ulg'ayish, bolalarcha hayotga nigoh, go'zallik va rang qizlar nigohida, travma, bolalarga e'tiborli bo'lish,
	8. Ta'lim-tarbiya	Oila, sevgi, ajrashish, ona, ota, ustozning o'rnini, kitobsevarlikning ahamiyati, kasb-hunarning o'rnini
	9. Jamiyat	Jamiyatda o'z o'rnini topish, jamiyatdagi qiyinchiliklar, jamiyatning aybdorligi, jamiyat muammolari, erta turmush qurish, bolalarning buvisi qo'lida qolayotgani, go'zallik standartlari
4.Asar shakliga oid	10. Realizm	Hayot qiyinchiliklari, noinsoniylik, hayot haqiqatlariga bo'ysunmaslik
	11. Avtobiografik	Memuar, bolalik memuari

O'zbek kitobxonlarining asar tahliliga oid izohlari asosida ham jadval qilishga erishildi. Ushbu jadvalda g'arb hamda rus kitobxonlarining izohlarida bo'lgani kabi, o'zbek kitobxonlarining tahliliy sharhlaridan kalit so'zlarni to'plashga va ularni 11 ta guruhda mavzuiy tasniflashga harakat qilindi. Mavzuiy tasniflar ham o'z navbatida to'rtta yirik kategoriyalarga birlashtirildi.

Shuningdek, kitobxonlarning asarni tavsiya qilishlari, boshqa asarlar bilan bog'lashlari, hozirgi va XX asr kitobxonlarini taqqoslashlari, hozirgi jamiyatdagi ayollar, afro-amerikalik insonlarning hissiyotlarini qay darajada tushunishlarini quyidagicha yakuniy jadval asosida bayon etish mumkin:

6-jadval

Aniqlangan qo'shimcha talqinlar		
Kimlarga tavsiya etish mumkin		<ul style="list-style-type: none"> • 12, 14, 16, 20, 25-28 yoshdan yuqorilar uchun, asosan ko'pchilik kitobxonlar 18+; • o'smir qizlarga va tushkunlikdagi insonlar uchun; • o'smirlar, homiladorlar, turmushga chiqmaganlar uchun emas, o'zbek madaniyatiga to'g'ri kelmaydi • authentic material reading va adabiyot darslari uchun
O'xshash asarlar		"Beloved", "White teeth", Halled Huseyn asarlari, "Bolalik", "Grapes of wrath", "Jungle", "Uncle Tom's Cabin", "Mening o'g'rigina bolam"

Hozirgi va 20-asr kitobxonlari	<ul style="list-style-type: none"> • kitobxonlar barcha davrda farqlanadi; • ba'zi jamiyat muammolari o'zgarmagan; • Ma'naviy qarashlar hozirda boshqacha.
Hozirgi jamiyatda ayollar	<ul style="list-style-type: none"> • tana rangining qizlar uchun ahamiyati, • bo'ysunuvchanlik, • uyda, ishda va sportda ayollarning o'rni
Afro-amerikaliklarning qulligiga nisbatan munosabat	<ul style="list-style-type: none"> • o'zbek xalqining Sovet tuzumi davridagi boshdan kechirgan notengliklariga o'xshab ketadi.

O'zbek kitobxonlari asarga nisbatan yoshi, jinsi, kasbiy faoliyati, oilaviy ahvolidan kelib chiqib turli-tuman fikr bildirganlar. O'zbek ayollari o'z izohlarida ko'proq ayol hamda oila tushunchasidan kelib chiqib fikr yuritgan bo'lsalar, o'zbek erkak kitobxonlari tarbiya, insoniylik, irqchilik, jamiyat muammolari kabi universal tushunchalarga e'tibor qaratganlar. Mazkur ilmiy tadqiqotning 3.1 hamda 3.2 paragraflarida Maya Enjelouning "Angladim qafasdagi qush nolasin" romani qay tarzda tahlil qilinishini o'rganish mobaynida kitobxonlarning jins jihatidan asarga nisbatan interpretatsiyalari ham farqli ekanligi aniqlandi. Natijada kitobxonlarning so'rovnomalar, davra suhbatlari hamda onlayn forumlardagi izohlari jins jihatdan tahlil qilindi. Ularning adabiy asar haqidagi fikrlarini gender jihatdan ikki mavzu doirasida analiz qilishga harakat qilindi. Asarni tahlil qilganlarning o'zini ham yig'ilgan ma'lumotlar asosida oilali, ajrashgan, oila qurmagan kabi kategoriyalarga ajratgan holda o'rganildi. Shuningdek, ikki mavzu doirasidagi fikrlar asarga nisbatan izoh bildirish usuli, tili va uslubiyati, shaxsiy hayotiga qanchalik bog'lashi kabi omillar jihatidan ham tahlil etildi.

7-jadval

O'zbek kitobxonlarining irqchilik masalalariga nisbatan talqinlari hamda munosabatlari			
Kitobxon jinsi	Fikr bildirish uslubi	Til va uslub	Shaxsiy tajriba
Ayollar	Qisqa, asosiy tushunchalar bilan ifodalangan.	To'g'ridan-to'g'ri uslubda; majhul va aniq nisbatlar aralashtirib qo'llanilgan.	Jamiyatda ayollarga nisbatan, ayniqsa, ularning irqi yoki millatiga ko'ra kamsitilish holatlari eslatib o'tilgan.
Erkaklar	Fikrlar uzoq, chuqur; diniy nuqtayi nazardan izohlangan.	Murakkab sintaktik tuzilmalar, majhul nisbat; ba'zi hollarda birinchi shaxs ko'plik shakli ishlatilgan.	Hududiy, ijtimoiy va diniy kontekstlar bilan bog'langan holda madaniy tafovutlar yoritilgan.
Kitobxonlarining gender masalalariga nisbatan talqinlari hamda munosabatlari.			
Kitobxon turi	Fikr bildirish usullarida gender jihatdan farqlari	Tili va uslubiyati gender jihatdan farqlari	Shaxsiy tajriba gender jihatdan farqlari

Oilali ayollar			Feminizmga ijobiy munosabat; oila va yaqinlariga oid tajribalar bilan boyitilgan.
Turmushi bo‘lmagan ayollar	Qisqa, aniq va ravshan fikrlar bildirgan.	Asosan, aniq nisbatda ifodalangan.	Salbiy fikr bildirgan; jamiyatda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik mavjudligi ta’kidlangan. Shaxsiy kuzatuvlarga asoslangan, umumlashtirilgan salbiy munosabat bildirgan.
Oilali erkaklar	Uzun, batafsil, misollarga boy yondashuv.	Majhul nisbat yoki birinchi shaxs ko‘plik shaklida ifoda etilgan.	Gender tengsizlik holatlarini oila va jamiyat kontekstida tahlil qilgan.
Bo‘ydoq erkaklar			Asar bilan bog‘lay olgan, ayollarga nisbatan uchratganligi

O‘zbek kitobxonlari badiiy asarni idrok etishda rus kitobxonlari singari umuminsoniy tushunchalarga ko‘proq murojaat qilishgan. O‘zbek ayollari asar tahlilida o‘z shaxsiy kechinmalari, asarga o‘xshash voqealarni boshdan kechirganliklari yoki uchratganliklarini oshkora ifoda etganlar. Bu o‘rinda ajrashgan kitobxonlar asarda ayollarning oilada, jamiyatda qadrlanmasligini ta’kidlab o‘tganlar. Erkak kitobxonlar esa asar mutolaasidan kelib chiqib, undagi voqealarni o‘z shaxsiy tajribalariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lamaydilar. Ular ham notenglik muammolariga jamiyatda nafaqat ayollar, balki erkaklar ham duch kelganliklarini yoritganlar.

XULOSA

Mayya Endjelouning “Angladim, qafasdagi qush nolasin” nomli avtobiografik romani retseptiv poetika nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, muallif, matn va kitobxon o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir mexanizmlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari retseptiv yondashuvning avtobiografik asarlarni chuqur va mazmunli tahlil qilishda samarali ilmiy metod sifatida qo‘llanishi mumkinligini asoslab berdi.

1. Retseptiv poetika zamonaviy adabiyotshunoslikdagi yetakchi nazariy yo‘nalishdar biri sanaladi. An’anaviy poetika, odatda, muallif niyatini talqinning markaziga qo‘ysa, retseptiv poetika kitobxonning shaxsiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy kontekstini asosiy talqin omillari sifatida ko‘radi. “Kutilish gorizontlari”, “implisit kitobxon” va “talqindagi bo‘shliqlar” kabi tushunchalar orqali kitobxonning matnga faol yondashuvi tahlil qilindi hamda matnni aynan kitobxon nuqtayi nazaridan o‘qish algoritmi ishlab chiqildi hamda takomillashtirildi.

2. Kitobxonlik retsepsiyasi bir xil yo‘sinda kechmaydi. Kitobxonlarning talqin uslublari ularning individual tafakkuri va estetik tayyorgarligi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida kitobxonlar quyidagi tipologik guruhlariga ajratildi: estetik, strategik, tajribasiz, ideal, bilimli, malakali va boshqalar. Har bir tip kitobxonning

matnga bo'lgan munosabatini, talqindagi faolligini hamda anglash darajasini aks ettiruvchi model sifatida baholandi.

3. Avtobiografik shakl, odatda, mualliflik niyatining bevosita ifodasini ta'minlaydi. Ammo Maya Endjelouning romanida shaxsiy tajriba jamiyatda irq va jins jihatdan kamsitishga uchragan guruhlarning umumiy ijtimoiy holatini yoritishga xizmat qiluvchi adabiy strategiyaga aylangan. Asar shaxsiy xotiradan tashqari, ijtimoiy tengsizlikka qarshi adabiy qarshilik shaklida ham talqin qilinadi.

4. Asarning badiiy tuzilmasi – fragmentli kompozitsiya, “qafasdagi qush” ramziy obrazi, og‘zaki xalq ijodi unsurlari va norozilik ruhidagi ifoda shakllari – kitobxonni estetik, axloqiy va hissiy jihatdan matnga jalb etadigan vositalar sifatida tahlil qilindi.

5. Kitobxonlik resepsiyasini amaliy jihatdan o‘rganish uchun anketalar, suhbatlar va onlayn platformalardagi (Amazon, Goodreads va boshqalar) fikrlar asosida tahlillar o‘tkazildi. Ular kitobxon talqiniga yosh, til, madaniyat va gender omillarining qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini berdi.

6. G‘arbiy, rusiyzabon va o‘zbek kitobxonlari talqinlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning yondashuvlari orasidagi farqlar ochib berildi. G‘arbiy kitobxonlar asarni ruhiy erkinlik va shaxsiy iztirob kontekstida talqin qilgan, rus kitobxonlar esa uni umuminsoniy qadriyatlar asosida mutolaa qilgan. O‘zbek kitobxonlar esa asarni axloqiy, oilaviy va tarbiyaviy kontekstda qabul qilgan. Bu holat retseptiv poetikaning madaniy muhitga bog‘liq holda o‘zgaruvchanligini amalda isbotlaydi.

7. Asarning tanqidiy retsepsiyasi doirasida mavjud bo‘lgan adabiy bahslar tahlil qilindi. Ba’zi tanqidchilar roman poetikasini va uning ijtimoiy ahamiyatini yuksak baholagan, boshqalar esa undagi ochiq mavzularni bahsli deb topgan. Bu fikrlar xilma-xilligi asarning polifonik tabiatini va uning turlicha talqin qilinish imkoniyatini ko‘rsatadi.

8. Tadqiqot kitobxon va matn o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning biryoqlama emasligini ochib berdi. Kitobxon matnni nafaqat qabul qiladi, balki o‘z madaniy tajribasi, estetik dunyoqarashi va hayotiy konteksti asosida uni talqin qiladi hamda mazmunan boyitadi. Asar bu jarayonda nafaqat estetik hodisaga, balki axloqiy va madaniy anglash vositasiga aylanadi.

9. Retseptiv poetika doirasida keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida quyidagilar taklif etildi: afroamerikalik ayol yozuvchilarning avtobiografik matnlarida ayol obrazlarini tahlil qilish; Maya Endjelouning romanini boshqa avtobiografik yoki memuar asarlar bilan qiyosiy o‘rganish; raqamli madaniyat (ijtimoiy tarmoqlar, adabiy bloglar) sharoitida kitobxonlik retsepsiyasi va talqin strategiyalarini tahlil qilish; muallif niyati va kitobxon talqinining madaniy hamda til kontekstlaridagi o‘zgarishlarini o‘rganish.

Umuman olganda, mazkur dissertatsiya avtobiografik adabiyot bilan retseptiv poetika o‘rtasida nazariy va amaliy aloqadorlikni mustahkamlab, badiiy matnni madaniy vositachilik jarayonidagi faol subyekt sifatida yoritdi. U muallif va kitobxon o‘rtasidagi madaniy muloqot maydonini ilmiy asoslab berdi. Tadqiqotda qo‘llangan retseptiv yondashuv esa zamonaviy, globallashgan va ko‘p ovozli kitobxonlik sharoitida adabiy tahlil uchun dolzarb, moslashuvchan va samarali metod sifatida o‘z o‘rnini topdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ
УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

УРАЗАЛИЕВА МАДИНА ГОФУРОВНА

**РОМАН МАЙИ ЭНДЖЕЛОУ «ПОЭТОМУ ПТИЦА В НЕВОЛЕ ПОЁТ»
В АСПЕКТЕ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ И
РЕЦЕПТИВНОЙ ПОЭТИКИ**

**10.00.04 – Язык и литература народов Европы,
Америки и Австралии**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2024.2.PhD/Fil4601.

Докторская диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский резюме) размещена на веб-странице Научного совета по адресу (www.uzswlu.uz) и на информационно-образовательном портале “ZiyoNet” по адресу (www.ziyo.net)

Научный руководитель:

Махмудова Наргиза Алимовна
доктор философии по филологии (PhD), доцент

Официальные оппоненты:

Хайруллаев Хуршидjon Зайниевич
доктор филологических наук, профессор

Насриддинов Дилшод Аъзамкулович
доктор философии по филологии (PhD), доцент

Ведущая организация:

Национальный педагогический университет
Узбекистана имени Низами

Защита диссертация состоится “___” _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик Халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-92; факс: (+99869) 227-07-61; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована № _____) (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик Халка йули, дом 21А. Тел.: (+99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2025 года
(Реестр протокола рассылки № _____ от “___” _____ 2025 года)

И.М.Тухтасинов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
педагогических наук, профессор

Х.Б.Самигова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

Ж.А.Якубов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Теория рецептивной поэтики сформировалась в мировом литературоведении в во второй половине XX века. В отличие от традиционных литературно-критических подходов, она акцентирует внимание на активной роли читателя в процессе интерпретации художественного текста. Читатель не просто воспринимает произведение, но привносит в его осмысление собственные переживания, жизненный опыт и индивидуальное мировоззрение, что напрямую влияет на формирование смысла произведения. Согласно исследованиям ведущих представителей рецептивной поэтики, одно и то же произведение может интерпретироваться по-разному в зависимости от личностных и культурных особенностей читателя. В этом контексте чувства, ассоциации и субъективное восприятие рассматриваются как ключевые элементы интерпретационного процесса. Актуальность настоящего исследования обусловлена необходимостью определения сущности рецептивной поэтики как одного из важнейших направлений современного литературоведения, выявления её теоретико-методологических основ, а также проведения углублённого анализа автобиографического романа Майи Энджелу «Поэтому птица в неволе поёт» с позиций литературной критики и рецептивной парадигмы.

Сторонники рецептивной поэтики утверждают, что читательский анализ художественного текста не менее важен, чем сам текст. Согласно данной теории, литературное произведение не существует вне интерпретации читателя. Это позволяет воспринимать произведение по-новому и создаёт потребность в его многоаспектном анализе. На практике до сих пор остаются нерешёнными вопросы, связанные с рецепцией литературы XX века: роль читателя, факторы, влияющие на интерпретацию текста, и различие между авторским замыслом и читательским восприятием. Кроме того, методологические основы рецептивной поэтики с прикладной точки зрения ещё недостаточно разработаны. Анализ романа Майи Энджелу «Поэтому птица поёт в неволе» в контексте рецептивной теории, как одного из значимых произведений не только афроамериканской, но и мировой литературы, подчеркивает значимость темы настоящей диссертации.

В узбекском литературоведении также существуют различные взгляды на проблему рецепции и на взаимодействие между читателем и художественным текстом. Исследователи подчёркивают важную роль читателя в формировании смысла произведения. Несмотря на то, что в процессе восприятия участвуют и литературные критики, переводчики, исследователи – все они, в конечном счёте, выступают в роли интерпретирующих читателей. Поэтому изучение рецепции художественного текста остаётся актуальной задачей не только для узбекского, но и для мирового литературоведения.

Результаты данной диссертации служат в определенной степени для реализации задач, намеченных в Законе Республики Узбекистан «О науке и научной деятельности» № ЗРУ–576 от 29.10.2019 г., Указах Президента

Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» № УП–5847 от 08.10.2019 г., «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» № УП–6108 от 06.11.2020 г., ПП–5117 от 19.05.21, Постановлениях Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в сфере науки и государственного управления в области инновационного развития» № ПП–5047 от 01.04.2021, Постановление Президента Республики Узбекистан “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан” «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы» № УП–60 от 28.01.2022 г., «О мерах по ускорению комплексного развития системы образования посредством повышения качества научно-методической и исследовательской работы» № ПП-128 от 20.04.2023, а также других нормативно-правовых документах, касающихся данной темы¹.

